

Bugun, 25 oktabr - ichki ishlar organlari xodimlari kuni.

Shu munosabat bilan ichki ishlar organlarining barcha xodimlarini, shuningdek, xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolarini, faxriylarni samimiy muborakbod etamiz.

Ichki ishlar idoralari huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim vazifalarni bajarib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu tizimning islohotlar barqarorligini ta'minlashdagi fidokorona va mashaqqatli xizmatlari yuksak e'tirofga loyiq.

Yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni mustahkamlashdek sharaflı xizmatlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin!